



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2026-yil 1-son

Volume 5, Issue 1, 2026



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117**



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2026

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir (Executive Editor): Iskandarova Dilafroz Ikrom qizi

Veb-administrator (Web admin): Mamatxo'jayev Otabek

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

A.B.Irmatova M.A.Ibodullayeva	<i>Raqamli texnologiyalarning joriy etilishining ijtimoiy mehnat munosabatiga ta'siri</i>	5-13
I.A.Bakiyeva Z.A.Azamatova	<i>O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va omillari</i>	14-25
M.O.Hamroqulov	<i>Barqaror demografik rivojlanish va mehnat resurslarining hududiy muvozanati</i>	26-37

DEMOGRAFIYA

T.Q.Aliyev Sh.T.Aliyev	<i>Factors affecting demographic development in Azerbaijan and opportunities to use them</i>	38-57
---	--	-------

INSON KAPITALI

S.M.Dusanov	<i>Ta'lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to'g'ri va aks ta'sir etuvchi omillar</i>	58-68
G.Z.Ubaydullayev	<i>Improvement of regional socio-economic development based on human capital management</i>	69-76
S.R.Xolbayeva	<i>Классификация участия человека в экономической системе по признаку его функциональной роли и институционального положения в воспроизводственном процессе</i>	77-93

INSON TARAQQIYOTI

F.A.Abduraxmonov	<i>Digital silk road and Uzbekistan: infrastructure upgrading, inclusion, and digital services growth</i>	94-103
Sh.Z.Karimova	<i>Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholashning nazariy asoslari</i>	104-109
O.S.Mirzamurodov	<i>Namangan viloyati aholi daromadlari darajasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish dinamikasining tahlili</i>	110-118

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

D.I.Iskandarova D.R.Ro'zimurodova	<i>Kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni</i>	119-128
--	---	---------

MIGRATSIYA

- O.O.Dlyanchev** *Фактор миграционной политики ФРГ в обеспечении национальных интересов Республики Узбекистан* 129-140

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

- O'X.Abdukarimov** *Davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun xulosalar* 141-157
- F.Z.Tolibova** *Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruv samaradorligini ta'minlashda hr analitikaning o'rni* 158-165

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

- A.S.Abdullayev** *Tabiiy falokatlar (NATCAT) qayta sug'urtalashida PML ko'rsatkichini baholashning ekstremal qiymatlar ekonometrikasi* 166-174
- E.D.Abduxakimov** *Роль малого бизнеса в обеспечении занятости населения в Узбекистане* 175-182
- M.M.Anvarova** *Kichik biznes subyektlarining raqamli platformalar orqali rivojlanishi nazariy asoslari* 183-190
- Sh.U.Karimova** *Ekologik barqaror transport turlarini iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash va baholash* 191-199
- D.T.Salimov**
S.D.Tojiyev
J.A.Fayziyev *Kobba–Duglas funksiyasi yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish* 200-217
- M.O.Shadmanova** *Mintaqalarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish imkoniyatlari (Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida)* 218-231



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA YOSHLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA DAVLAT SIYOSATINING O‘RNI

Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Fan va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi,
TDIU tayanch doktoranti
dilafruz00806@gamil.com

Ro‘zimurodova Dilroz Ravshan qizi

Fan va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a248

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv sharoitida kambag‘allikni kamaytirish va yoshlar bandligini ta‘minlashda davlat siyosatining roli o‘rganilgan. Tadqiqot davomida inson kapitalini rivojlantirish, ta‘lim va malaka oshirish, progressiv soliqlar, ijtimoiy dasturlar, mikrokredit va maqsadli dasturlar samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, yoshlar bandligi, davlat siyosati, inson kapitali, inklyuziv o‘shish, mikrokredit, ijtimoiy dasturlar, progressiv soliqlar

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ

Искандарова Дилафруз Икром кизи

Преподаватель кафедры «Экономика»
Университета науки и технологий, базовый докторант ТГЭУ
dilafruz00806@gmail.com

Рузимуродова Дилроз Равшан кизи

Студентка 2-го курса направления «Экономика»
Университета науки и технологий

Аннотация. В статье исследовалась роль государственной политики в сокращении бедности и обеспечении занятости молодежи в условиях современной глобализации. В ходе исследования была проанализирована эффективность инвестиций в человеческий капитал, образование и повышение квалификации, прогрессивные налоги, социальные программы, микрокредитование и целевые программы.

Ключевые слова: бедность, занятость молодежи, государственная политика, человеческий капитал, инклюзивный рост, микрокредит, социальные программы, прогрессивные налоги

THE ROLE OF STATE POLICY IN POVERTY REDUCTION AND ENSURING YOUTH EMPLOYMENT

Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Lecturer at the "Economics" Department,
University of Science and Technologies; PhD Student at TSUE
dilafruz00806@gmail.com

Ruzimurodova Dilroz Ravshan qizi

2nd-year student in Economics
University of Science and Technologies

Abstract. The article examined the role of state policy in reducing poverty and ensuring youth employment in the context of modern globalization. The study analyzed the effectiveness of investing in human capital, education and skills development, progressive taxes, social programs, microcredit, and targeted programs.

Keywords: poverty, youth employment, state policy, human capital, inclusive growth, microcredit, social programs, progressive taxes

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanish nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki aholi farovonligining yuksalishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, kambag'allikni qisqartirish va aholini, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta'minlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki kambag'allik darajasining yuqoriligi jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, yoshlar ishsizligi esa iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda davlat siyosati iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy muammolarni hal etishga ham yo'naltirilmoqda. Xususan, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur mavzu dolzarb hisoblanib, unda kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlash masalasi keng o'rganilgan bo'lib, bu borada turli olimlar o'z qarashlarini ilgari surganlar. Masalan, iqtisodchi olim Amartya Sen o'zining tadqiqotlarida kambag'allikni faqat daromad yetishmasligi bilan emas, balki inson imkoniyatlarining cheklanishi bilan izohlaydi [1]. Uning "imkoniyatlar yondashuvi"ga ko'ra, insonning haqiqiy farovonligi uning qancha daromadga ega ekanligi bilan emas, balki u qanday hayot kechira olishi, ya'ni ta'lim olish, sog'lom bo'lish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va munosib mehnat qilish imkoniyatlariga ega ekanligi bilan belgilanadi. Shu sababli Sen kambag'allikni

ko‘proq ijtimoiy va institutsional muammo sifatida baholab, uni bartaraf etishda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratadi.

Uning fikricha, agar davlat ta‘lim tizimini rivojlantirsa, sog‘liqni saqlash xizmatlarini yaxshilasa va mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratsa, aholining eng zaif qatlamlari ham o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat kambag‘allik darajasining pasayishiga, balki umumiy iqtisodiy o‘shishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar uchun sifatli ta‘lim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish ularning kelajakda barqaror daromad topishiga zamin yaratadi. Ushbu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlash mumkin, chunki bugungi kunda kambag‘allikka qarshi kurashishda faqat moddiy yordam berish yetarli emasligi amalda isbotlangan. Agar insonlarda bilim, ko‘nikma va sog‘liq bo‘lmasa, berilgan moliyaviy yordam qisqa muddatli natija beradi, xolos. Shu bois, kambag‘allikni kamaytirishda davlat siyosati inson kapitalini rivojlantirish, ya‘ni ta‘lim, sog‘liqni saqlash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilishi lozim. Aynan shunday kompleks yondashuv uzoq muddatli va barqaror natijalarga olib keladi.

Joseph Stiglitz iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda davlat siyosatining faol aralashuvi zarurligini alohida ta‘kidlaydi [2]. Uning fikricha, erkin bozor mexanizmlari har doim ham resurslarni adolatli taqsimlay olmaydi va natijada daromadlar o‘rtasidagi tafovut keskinlashib boradi. Ayniqsa, kapitalga ega qatlamlar tezroq boyib borishi, kam daromadli aholining esa imkoniyatlari cheklanib qolishi ijtimoiy nomutanosiblikni kuchaytiradi. Stiglitz shuni ham qayd etadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aralashuvisiz ijtimoiy adolatni ta‘minlash deyarli imkonsiz, chunki bozor asosan foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ijtimoiy tenglikni o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi.

Shu sababli u davlat tomonidan progressiv soliqlar joriy etish, ijtimoiy transfertlarni kengaytirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimiga investitsiyalarni oshirish zarurligini ilgari suradi. Bunday choralar orqali aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlar uchun sifatli ta‘lim va ish o‘rinlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish uzoq muddatda iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlash mumkin, chunki zamonaviy iqtisodiy tizimda davlatning tartibga soluvchi roli nihoyatda muhimdir. Agar davlat iqtisodiyotga faol aralashmasa, ijtimoiy himoya tizimi zaiflashadi va kambag‘allik darajasi oshib boradi. Shu bilan birga, davlat siyosati nafaqat yordam berishga, balki aholining o‘z daromadini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga ham qaratilishi lozim. Aynan shunday yondashuv ijtimoiy adolatni ta‘minlash bilan birga barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishga xizmat qiladi.

Arthur Okun o‘z asarlarida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ilgari suradi [3]. Uning

ta’kidlashicha, iqtisodiyotda daromadlarni haddan tashqari tenglashtirish yoki ortiqcha qayta taqsimlash siyosati ishlab chiqarish rag’batlarini susaytirishi mumkin. Chunki yuqori daromad olish imkoniyati insonlarni ko’proq ishlashga, innovatsiya qilishga va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga undaydi. Agar bu rag’batlar cheklansa, iqtisodiy faollik pasayib, umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi ehtimoli mavjud. Okun shu nuqtai nazardan “samaradorlik va tenglik o’rtasidagi muvozanat” g’oyasini ilgari surib, davlat siyosati bu ikki omilni uyg’unlashtirishi lozimligini ta’kidlaydi. Ya’ni, bir tomondan ijtimoiy adolatni ta’minlash, kambag’allikni kamaytirish zarur bo’lsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy o’sishni rag’batlantiruvchi omillarni saqlab qolish ham muhimdir. Bu ayniqsa bandlik siyosatida yaqqol namoyon bo’ladi, chunki ish o’rinlari yaratish bilan birga, mehnat unumdorligini oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu fikrga qisman qo’shilish mumkin. Haqiqatan ham iqtisodiy tenglikni ta’minlash muhim, biroq bu jarayonda bozor rag’batlarini susaytirib qo’ymaslik zarur. Shuning uchun davlat siyosati muvozanatli bo’lishi, ya’ni bir tomondan aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo’llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik va mehnat faolligini rag’batlantirishga qaratilishi lozim. Aynan shunday yondashuv orqali ham ijtimoiy adolat, ham iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

John Maynard Keynes bandlikni oshirishda davlat xarajatlarining hal qiluvchi rolini alohida ta’kidlaydi [4]. Uning nazariyasiga ko’ra, bozor iqtisodiyoti har doim ham o’z-o’zidan to’liq bandlikni ta’minlay olmaydi, ayniqsa iqtisodiy inqiroz davrlarida umumiy talabning pasayishi natijasida ishlab chiqarish qisqaradi va ishsizlik darajasi ortadi. Bunday sharoitda davlat passiv kuzatuvchi bo’lib qolmasdan, faol iqtisodiy siyosat yuritishi zarur. Keynes fikricha, davlat byudjeti hisobidan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritish va turli davlat dasturlarini kengaytirish orqali iqtisodiyotga qo’shimcha talab kiritadi. Bu esa o’z navbatida yangi ish o’rinlari yaratilishiga, aholining daromadlari oshishiga va umumiy iqtisodiy faollikning tiklanishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlashda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fikr bugungi kunda ham o’z dolzarbligini saqlab qolgan. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda ham turli inqirozlar, iqtisodiy pasayishlar yuz berib turadi va bunday vaziyatlarda davlatning faol aralashuvi muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat xarajatlari maqsadli va samarali yo’naltirilishi lozim, aks holda byudjet taqchilligi ortib ketishi mumkin. Demak, Keynes g’oyalari asosida olib borilgan muvozanatli siyosat nafaqat bandlikni oshirishga, balki kambag’allikni qisqartirishga ham xizmat qiladi.

Gary Becker inson kapitaliga investitsiya kiritish orqali bandlikni oshirish mumkinligini asoslab beradi [5]. Uning nazariyasiga ko’ra, inson kapitali — bu ta’lim, malaka, sog’liq va boshqa ko’nikmalar orqali shakllanadigan resurs bo’lib, uning rivojlanishi mehnat bozorida samarali ishlash imkoniyatini

oshiradi. Becker ta’kidlaydiki, ta’lim va malaka oshirish nafaqat ishga joylashish imkoniyatini kengaytiradi, balki ish unumdorligini ham oshiradi va shu orqali iqtisodiy samaradorlikni yaxshilaydi. Bu fikrni to’liq qo’llab-quvvatlash mumkin, chunki zamonaviy iqtisodiyotning asosiy omili bilim va malakaga asoslangan mehnatdir. Yoshlar va ishchi kuchi ta’lim va kasbiy ko’nikmalar orqali tayyorlanmasa, mavjud ish o’rinlari samarali foydalanilmaydi va ishsizlik darajasi oshadi. Shu bois, davlat siyosati nafaqat ish o’rinlarini yaratishga, balki aholini sifatli ta’lim bilan ta’minlashga, kasb-hunar o’rgatishga va malaka oshirish dasturlarini kengaytirishga yo’naltirilishi lozim.

Shuningdek, inson kapitaliga investitsiya kiritish uzoq muddatli ijobiy natija beradi: bandlik ortadi, kambag’allik darajasi pasayadi va iqtisodiy o’sish barqaror bo’ladi. Aynan shunday yondashuv orqali iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat uyg’unlashadi, yoshlar bandligini oshirish va ularning kelajakdagi daromad salohiyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhammad Yunus mikromoliyalashtirish orqali kambag’allikni kamaytirish mumkinligini alohida ta’kidlaydi [6]. Uning nazariyasiga ko’ra, kichik miqdordagi kreditlar, ya’ni mikrokreditlar, odatda kam ta’minlangan oilalarga yoki tadbirkorlik boshlash istagidagi shaxslarga beriladi va bu orqali ular o’zlarini ish bilan ta’minlay oladi. Yunus bu yondashuvni Grameen Bank orqali amalda sinab ko’rgan va ushbu metod samarali ekanligini isbotlagan. Mikromoliyalashtirishning afzalligi shundaki, u nafaqat daromad manbaini yaratadi, balki jamiyatda o’z-o’zini rivojlantirish va iqtisodiy mustaqillikni rag’batlantiradi. Bu tizim, ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligini oshirishda samarali bo’lib, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Shuningdek, kichik bizneslarni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotga qo’shimcha qiymat yaratiladi, kambag’allik darajasi kamayadi va aholining turmush sharoiti yaxshilanadi.

Ushbu fikr amaliy jihatdan o’z isbotini topgan va ko’plab rivojlanayotgan davlatlarda mikrokreditlash tizimlari joriy etilgan. Shu bois, davlat siyosatida mikromoliyalashtirish vositasidan foydalanish kambag’allikni qisqartirish va yoshlarni ish bilan ta’minlash strategiyasining muhim qismi bo’lishi lozim. Aynan shunday yondashuv orqali iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni bir vaqtda ta’minlash mumkin.

Abhijit Banerjee va Esther Duflo kambag’allikni kamaytirishda aniq maqsadli dasturlar samarali ekanligini o’z tadqiqotlarida isbotlaydi [7]. Ularning fikriga ko’ra, keng qamrovli, umumiy yondashuvlar ko’pincha resurslarning noto’g’ri taqsimlanishiga olib keladi va zaif qatlamlarga yetib bormaydi. Shu sababli, aniq belgilangan ijtimoiy dasturlar — masalan, bolalar uchun bepul ta’lim, ayollar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash, yoki yoshlarni kasb-hunar o’rgatish loyihalari — kambag’allikni kamaytirishda ancha samaraliroq hisoblanadi.

Ularning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, bunday maqsadli chora-tadbirlar resurslarni eng muhtoj qatlamlarga yo’naltirishga imkon beradi va

qisqa muddatda sezilarli natijalar beradi. Shu bois, ushbu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlash mumkin. Davlat siyosati ham shunga mos ravishda, keng qamrovli yordam berishdan ko‘ra, aniqlik bilan belgilangan va natija beruvchi dasturlarga e‘tibor qaratishi lozim. Bu yondashuv nafaqat kambag‘allikni qisqartirishga, balki yoshlar bandligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Dani Rodrik globalizatsiya sharoitida milliy siyosatning ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi [8]. Uning fikricha, tezkor global o‘zgarishlar, xalqaro savdo va investitsiya oqimlari rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, har bir davlat o‘z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitidan kelib chiqib, milliy siyosatini shakllantirishi zarur. Rodrik bu nuqtai nazardan “globalizatsiya va milliy siyosat o‘rtasidagi muvozanat” g‘oyasini ilgari suradi, ya‘ni davlat o‘z iqtisodiyotini raqobatbardosh qilish bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ham ta‘minlashi kerak.

Bu fikr ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarbdir, chunki ular ko‘pincha xalqaro bozorlarda raqobat kuchaygan sharoitda o‘z ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini moslashtirishga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga, milliy siyosat orqali kambag‘allikni kamaytirish, bandlikni oshirish va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalarni samarali hal qilish mumkin. Ushbu yondashuvga qo‘shilish mumkin, chunki faqat global iqtisodiy tendensiyalarga ergashish yetarli emas; milliy sharoit va mahalliy ehtiyojlar hisobga olinmagan siyosat uzoq muddatli natija bermaydi. Shu bois, har bir davlat o‘z strategiyasini ishlab chiqishda global sharoitni kuzatish bilan birga, ichki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlashni ustuvor vazifa sifatida belgilashi lozim.

Tahlil va natijalar

World Bank hisobotlarida kambag‘allikni kamaytirish uchun inklyuziv iqtisodiy o‘shish zarurligi alohida ta‘kidlanadi [9]. Hisobotga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish faqat yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi bilan cheklanmasligi, balki uning natijalari jamiyatning barcha qatlamlariga yetib borishi kerak. Aks holda, o‘shishning ijtimoiy samarasi cheklangan bo‘lib, kambag‘allik darajasi pasaymaydi va tengsizlik saqlanib qoladi. Inklyuziv o‘shish orqali iqtisodiy imkoniyatlar kengayadi, kam ta‘minlangan qatlamlar ham turmush darajasini oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv yoshlar bandligini ta‘minlashda ham samarali, chunki kengaygan iqtisodiy faoliyat yangi ish o‘rinlarini yaratadi va aholi daromadlarini oshiradi.

Ushbu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlash mumkin, chunki nafaqat rivojlanayotgan davlatlar, balki global tajriba shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv o‘shishning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi aniq ifodalanadi. Shu bois, davlat siyosati inklyuziv o‘shishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilishi, kambag‘allikni qisqartirish va yoshlar bandligini oshirish strategiyasining asosiy qismi bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining natijalari (2022–2024 yy.)

N ^o	Soha	Boshlang‘ich daraja (2022)	Islahotlarning nazariy-uslubiy asoslari	Natija (2024) / Tasir
1	Kambag‘allik	17 %	Inson kapitalini rivojlantirish (Sen, 1999)	13%
2	Iqtisodiy tengsizlik	Jini indeksi 0.38	Progressiv soliqlar, ijtimoiy transfertlar (Stiglitz, 2012)	0.35
3	Ish o‘rinlari yetishmasligi	500 ming ish o‘rinlari	Davlat investitsiyalari, infrastrukturaga xarajat (Keynes, 1936)	800 ming
4	Malaka yetishmasligi	Ishga kirish muvaffaqiyati: 72%	Ta‘lim va malaka oshirish dasturlari (Becker, 1964)	85 %
5	Kichik tadbirkorlik	Mikrokredit foydalanuvchilari: 300 ming	Mikrokreditlar orqali o‘zini ish bilan ta‘minlash (Yunus, 2007)	450 ming
6	Resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi	Maqsadli dasturlar qamrovi: 45 %	Maqsadli dasturlar (Banerjee & Duflo, 2011)	70 %
7	Yoshlar ishsizligi	12 %	Mehnat bozorini tartibga solish, stajirovka va kasb-hunar (ILO, 2022)	8 %
8	Samaradorlik va tenglik	Ishlab chiqarish o‘shishi: 4.2 %	Muvozanatli siyosat (Okun, 1975)	4.5 %
9	O‘shishdan barcha qatlamlar foyda ko‘rmaydi	Inklyuziv o‘shish indeksi: 0.62	Inklyuziv o‘shish va ijtimoiy dasturlar (World Bank, 2020)	0.71
10	Globalizatsiya sharoitida milliy siyosat	Eksport/import o‘shishi: 8 %	Milliy siyosatni sharoitga moslashtirish (Rodrik, 2007)	12 %


International Labour Organization yoshlar bandligini ta‘minlashda mehnat bozorini tartibga solishning muhimligini alohida ta‘kidlaydi [10]. ILO ma‘lumotlariga ko‘ra, yoshlar ko‘pincha ishga kirishda malaka yetishmasligi, tajriba yetishmasligi yoki mehnat bozoridagi nomutanosiblik sababli qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, mehnat bozorini samarali tartibga solish, ishga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va yoshlar uchun maxsus dasturlarni joriy etish zarur.

Bu fikr dolzarb bo‘lib, yoshlar ishsizligini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, kasb-hunar o‘rgatish dasturlari, yoshlar uchun

stajirovkalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari ularning bandligini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, mehnat qonunchiligi va siyosatini yoshlar ehtiyojiga moslashtirish, ularni ish bilan ta'minlashni samarali qiladi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bois, davlat siyosati mehnat bozorini tartibga solish orqali yoshlar bandligini oshirishga e'tibor qaratishi lozim. Bu nafaqat kambag'allikni kamaytirish, balki kelajakda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, yuqoridagi adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Faqat iqtisodiy o'sish yetarli emas, balki ijtimoiy siyosat, ta'lim va bandlik dasturlari uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni kamaytirish va yoshlar bandligini oshirishda kompleks va integratsiyalangan davlat siyosati samarali bo'ladi. Boshlang'ich darajalarga qaraganda, inson kapitalini rivojlantirish, progressiv soliqlar va ijtimoiy dasturlar kambag'allikni pasaytirgan, ta'lim va sog'liq sohasidagi investitsiyalar tenglikni yaxshilagan.



1-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi

Bandlik va ish o'rinlarini ko'paytirish uchun davlat investitsiyalari, bandlik dasturlari va malaka oshirish tadbirlari qo'llanildi; natijada yangi ish o'rinlari sezilarli darajada oshdi. Yoshlar ishsizligini kamaytirish uchun stajirovka va kasb-hunar dasturlari tatbiq etildi, mehnat bozorida ijtimoiy barqarorlik mustahkamlandi.

Aniq maqsadli ijtimoiy dasturlar resurslarni eng muhtoj qatlamlarga yetkazishga yordam berdi, samaradorlik oshdi. Iqtisodiy o'sish va inklyuziv

o‘sish natijalari uyg‘unlashdi: ishlab chiqarish o‘sishi, inklyuzivlik indeksi va Gini ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Xulosa

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki aholi farovonligi bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni kamaytirish va yoshlar bandligini oshirishda kompleks va integratsiyalangan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega. Inson kapitalini rivojlantirish, ta‘lim va malaka oshirish, progressiv soliqlar, ijtimoiy dasturlar, mikro kredit va maqsadli ijtimoiy dasturlar birgalikda qo‘llanilganda kambag‘allik darajasi pasaydi, ish o‘rinlari oshdi, Gini indeksi yaxshilandi va yoshlar ishsizligi kamaydi.

Tahlil natijasi shu ifodalaydiki, faqat iqtisodiy o‘sish yetarli emas; davlat siyosati nafaqat aholini moddiy qo‘llab-quvvatlashga, balki ularning bilim, ko‘nikma va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Shu orqali iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va inklyuziv o‘sish uyg‘unlashadi, kambag‘allik darajasi pasayadi va yoshlar bandligi ta‘minlanadi.

Shuningdek, global va milliy siyosatni uyg‘unlashtirish, mehnat bozorini tartibga solish va maqsadli dasturlarni samarali yo‘naltirish orqali davlat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni bir vaqtda ta‘minlay oladi. Natijada, kompleks yondashuv nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli va barqaror natijalarga olib keladi, jamiyatning barcha qatlamlari foyda ko‘radi va iqtisodiy tenglik mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sen A. Development as Freedom. New York: Oxford University Press, 1999. B- 87
2. Stiglitz J. The Price of Inequality. New York: W.W. Norton, 2012. B- 112
3. Okun A. Equality and Efficiency. Washington: Brookings, 1975. B- 45
4. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London, 1936. B- 250
5. Becker G. Human Capital. Chicago: University of Chicago Press, 1964. B-33
6. Yunus M. Banker to the Poor. New York, 2007. B- 56
7. Banerjee A., Duflo E. Poor Economics. New York, 2011. B- 102
8. Rodrik D. One Economics, Many Recipes. Princeton, 2007. B- 67
9. World Bank. World Development Report. 2020. B- 145
10. ILO. Global Employment Trends for Youth. 2022. B- 78
11. Irmatova, A., Mirzakarimova, M., Iskandarova, D., Abdumalikova, Gr. (2025). Factors and Prospects for the Development of Digital Educational Platforms in Uzbekistan. In: Yang, X.S., Sherratt, S., Dey, N., Joshi, A. (eds) Proceedings of Tenth International Congress on Information and Communication

Technology. ICICT 2025. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 1415. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-96-6438-2_17

12. Iskandarova, D. (2025). Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(4).

13. Gulnora Abdurakhmanova, Aziza Irmatova, Dilafuz Iskandarova, Mirabbos Khamrokulov, Ferangiz Tolibova. Developing Female Leadership: Experience of Tashkent State University of Economics. 2025 IEEE Integrated STEM Education Conference (ISEC), 1-8 pages. DOI: 10.1109/ISEC64801.2025.11147252

14. Dilafuz Iskandarova. Econometric Analysis of Population Income Formation in Uzbekistan, American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750). №5 (2024), 61-67 p. <https://grnjournal.us/index.php/AJSIHD/article/view/4577>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz